



O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA TAHLILI

**Ramazonov Javohir
Bekzod o'g'li**


Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisda O'zbekiston Respublikasida 2022–2025 yillar davomida ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini moliyalashtirish yo'nalishida ajratilgan mablag'lar dinamikasi va asosiy tendensiyalari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Fundamental, amaliy, innovatsion, tijoratlashtirish va startap loyihalari, shuningdek, ilmiy g'oyalarni rag'batlantirish hamda boshqa turdagi ilmiy faoliyatlarga ajratilgan mablag'larning yillik o'zgarishlari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: ilmiy faoliyat, moliyalashtirish, davlat dasturi, innovatsiya, amaliy tadqiqot, fundamental tadqiqot, tijoratlashtirish, startap.

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish masalasi milliy innovatsion tizimning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy faoliyatni davlat tomonidan va boshqa manbalar hisobidan samarali moliyalashtirish, yuqori raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ilm-fan va innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish va davlat dasturlari doirasida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarning turli yo'nalishlari bo'yicha ajratilayotgan mablag'larning hajmi va tarkibi o'zgarib borayotgani, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar, tijoratlashtirish va startap loyihalari, shuningdek, ilmiy g'oyalarni rag'batlantirish sohalarida davlat dasturlari doirasida moliyalashtirish dinamikasi muhim tahliliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini moliyalashtirish sohasida 2022–2025 yillar davomida ajratilgan mablag'lar miqdorida ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan.



1-rasm. Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari uchun 2022-2025-yillar ajratilgan mablag'lar (mlrd. so'm).¹

Jumladan “Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari” uchun 2022-yilda jami 538,3 mlrd so'm, 2023-yilda 522,8 mlrd so'm, 2024-yilda 609,3 mlrd so'm, 2025-yilda esa 570,0 mlrd so'm ajratilishi ko'zda tutilgan. Bu ko'rsatkichlar ilmiy faoliyat uchun mablag'larning izchil ortib borayotganini, ayniqsa, 2024-yilda moliyalashtirish hajmi eng yuqori nuqtaga chiqqanini, keyingi yilda esa nisbiy pasayish sodir bo'lganini ko'rsatadi (1-rasm).

Fundamental loyihalar uchun ajratilgan mablag' va loyiha soni yillar davomida qisqarib boradi. Xususan, 2022-yilda 165 ta fundamental loyiha uchun 123,1 mlrd so'm, 2023-yilda 174 ta loyiha uchun 99,5 mlrd so'm, 2024-yilda 136 ta loyiha uchun 75,2 mlrd so'm, 2025-yilda esa 110 ta loyiha uchun 52,6 mlrd so'm ajratilgan. Ushbu ko'rsatkichlar asosida fundamental yo'nalishda moliyalashtirish hajmi va loyiha soni muntazam ravishda kamayib borayotgani kuzatiladi.

Amaliy loyihalarga e'tibor kuchayib, ajratilayotgan mablag' va loyiha soni bosqichma-bosqich oshib boradi. 2022-yilda 375 ta amaliy loyiha uchun 204,4 mlrd so'm, 2023-yilda 458 ta loyiha uchun 227,0 mlrd so'm, 2024-yilda 512 ta loyiha uchun 261,6 mlrd so'm, 2025-yilda esa 562 ta loyiha uchun 290,5 mlrd so'm ajratilgan. Bu esa ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishiga alohida e'tibor qaratilayotganini bildiradi.

Innovatsion loyihalarda ham o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Mazkur yo'nalishda 2022-yilda 64 ta loyiha uchun 30,4 mlrd so'm, 2023-yilda 79 ta loyiha uchun 31,4 mlrd so'm, 2024-yilda 115 ta loyiha uchun 45,8 mlrd so'm, 2025-yilda esa 151 ta loyiha uchun 70,0 mlrd so'm ajratilgan. Bu innovatsion loyihalarga bo'lgan e'tibor va sarmoya yildan-yilga oshib borayotganini ko'rsatadi.

Tijoratlashtirish loyihalariga ajratiladigan mablag' va loyiha sonida esa qisqarish kuzatiladi. 2022-yilda 117 ta loyiha uchun 52,5 mlrd so'm, 2023-yilda 104 ta loyiha uchun 71,3 mlrd so'm ajratilgan bo'lsa-da, 2024-yilda 73 ta loyiha uchun 11,4 mlrd so'm va 2025-yilda atigi 1 ta loyiha uchun 2,0 mlrd so'm ajratilgan. Ushbu statistika

¹ <https://innofund.uz/> - Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi rasmiy statistik axborotlari.

tijoratlashtirish yo'nalishidagi rag'batlantirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Startup loyihalari bo'yicha ham o'zgarishlar kuzatiladi. 2022-yilda 106 ta startup uchun 35,5 mlrd so'm, 2023-yilda 136 ta uchun 36,3 mlrd so'm, 2024-yilda 122 ta uchun 30,1 mlrd so'm va 2025-yilda esa 36 ta uchun 5,1 mlrd so'm ajratilishi rejalashtirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar startaplarni qo'llab-quvvatlashda avval o'sish, so'ng esa sezilarli qisqarish yuzaga kelganini bildiradi.

Ilmiy g'oyalarni rag'batlantirish yo'nalishida esa dastlab o'sish, so'ngra qisqarish tendensiyasi mavjud. 2023-yilda 15 ta loyiha uchun 1,1 mlrd so'm, 2024-yilda 43 ta loyiha uchun 3,3 mlrd so'm, 2025-yilda 23 ta loyiha uchun 2,1 mlrd so'm ajratilgan.

Boshqa yo'nalishlar uchun ajratilgan mablag'lar ham bosqichma-bosqich ortib boradi. Xususan, 2022-yilda 18,4 mlrd so'm, 2023-yilda 27,7 mlrd so'm, 2024-yilda 37,2 mlrd so'm, 2025-yilda esa 49,1 mlrd so'm mablag' ajratilgan (1-jadval).

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida ilmiy faoliyatni moliyalashtirish amaliyotida so'nggi yillarda ijobiy o'zgarishlar va izchil rivojlanish tendensiyalari kuzatilmoqda. Xususan, amaliy va innovatsion loyihalarga ajratilayotgan mablag'lar va loyiha sonining oshishi ilmiy-innovatsion rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa mamlakatda ilmfan va texnologiyalarni iqtisodiyotga samarali integratsiya qilish, ilg'or natijalarga erishish hamda milliy innovatsion ekotizimni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Biroq, fundamental tadqiqotlar, tijoratlashtirish, startaplar va ilmiy g'oyalarni rag'batlantirish sohalarida ayrim yillarda qisqarish tendensiyasining mavjudligi, ushbu yo'nalishlarda moliyaviy barqarorlikni oshirish, zamonaviy rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ilmiy faoliyat uchun ajratiladigan mablag'lar hajmining izchil oshirilishi bilan birga, ularning samarali va maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash, ilmiy-innovatsion loyihalarni natijalari bo'yicha monitoring va baholash tizimini takomillashtirish ham dolzarb ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston sharoitida ilmiy faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. **Fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish** – Ilmiy taraqqiyotning poydevori bo'lgan fundamental tadqiqotlarga ajratiladigan mablag'lar va loyiha sonini barqaror oshirib borish, ularning natijalarini iqtisodiy va ijtimoiy hayotga integratsiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim.

2. **Tijoratlashtirish va startup ekotizimini rivojlantirish** – Tijoratlashtirish va startup loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish, innovatsion mahsulot va texnologiyalarni bozorga chiqarishda davlat-xususiy hamkorlik va venchur moliyalashtirish mexanizmlaridan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

3. **Amaliy va innovatsion loyihalarni rivojlantirish** – Amaliy va innovatsion loyihalarni tanlashda natijadorlik va amaliy ahamiyat mezonlarini yanada kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va ularning iqtisodiyotga ta'sirini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. **Ilmiy g'oyalarni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish** – Zamonaviy ilmiy g'oyalarni rivojlantirish va yosh olimlarni faol ilmiy-innovatsion

faoliyatga jalb etish uchun grantlar, stipendiyalar, maxsus fondlar va dasturlar doirasida qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari kengaytirish maqsadga muvofiq.

5. **Moliyalashtirish tizimining shaffofligi va samaradorligini oshirish** – Mablag‘larni taqsimlashda ochiqlik, natijadorlik va samaradorlik mezonlarini mustahkamlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish orqali ilmiy faoliyat monitoringi va baholash tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ilmiy-innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning zamonaviy tendensiyalari mavjud bo‘lib, tizimli islohotlar va ilg‘or yondashuvlar orqali ilmiy salohiyatni rivojlantirish, natijadorlik va samaradorlikni oshirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va iqtisodiyotga integratsiya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, ayrim yo‘nalishlarda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish va moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish istiqbolli rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi rasmiy statistik axborotlari (<https://innofund.uz/>).

3. Djalilova N. Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 2022.

4. Fabozzi F. J. Capital Markets: Institutions and Instruments. – Pearson Education, 2016.

5. OECD. Public Funding of Science and Innovation: Best Practices and Future Perspectives. – OECD Publishing, 2024.